




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushylyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

G'ANI JAHONGIROV VA BOLALAR O'YIN FOLKLORI

G'ANI JAHONGIROV'S CONTRIBUTION TO THE STUDY OF CHILDREN'S PLAY FOLKLORE

Ohista RAHIMQULOVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CNEW8759

Annotation. *The article examines some of the opinions and innovations of the folklorist Gani Jahongirov on the topic of children's play folklore, genre features of the analysis of folklore elements in the play, and specific features related to performance.*

Key words: *game folklore, invitation to the game, beginning of the game, number of terms, mono 'z-mono 'z, choir-chambar, blindfold, bald goat, white rice, blue rice.*

O'zbek folklorshunosligida alohida yo'nalish sifatida shakllangan bolalar folklori o'zining uzoq taraqqiyot bosqichiga ega. Dastlabki izlanishlar rus oriyentalistlari tomonidan olib borilgan bo'lsa, keyinchalik muhim yirik tadqiqotlar G'. Jahongirov, Sh. Galiyev, N. Qurbonova, O. Safarovlar tomonidan amalga oshirildi. Bolalar folklorining nazariy asoslari, genezisi, janriy tarkibi yigirmanchi asrning 60-70 yillarida ilmiy asosini topdi. Jumladan G'. Jahongirov ham bolalar folklorini jiddiy tadqiq etgan olimlardan hisoblanadi.

"Bolalar folklori" bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni-vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini, kattalar bilan birgalikda tabiat stixiyalariga qarshi kurashish va ularni yengish malakalarini tarbiyalaydi [Жаҳонгиров F, 1969: 8-19].

Olimning eng qimmatli va noyob asarlaridan bo'lmish hikoyalari, "Bolalar ertaklari", "O'zbek bolalar folklori" kitoblaridir. Biz dastlab olimning "Delfin ustidagi bola" hikoyalari to'plamiga kirgan ayrim hikoyalari to'g'risida ikki og'iz tahlil bersak.

"Delfin ustidagi bola" hikoyasida Soli ismli bolaning dadasi bilan baliq oviga borgani va to'riga bexosdan delfin ilinib qolishi, Soli delfin ustiga minib ko'plab sarguzashtlarni boshidan kechirgani va o'sha qisqa vaqt mobaynida uning ko'z oldida barcha yaqinlari, ayniqsa, onasining kelishi va unga berilgan yashash baxtini, hayot qadrini naqadar aziz bir ne'mat ekanligini tushunib yetishi tasvirlangan.

"Ziyrak qiz" ushbu hikoyada Muhabbat ismli qizning yangi uyga ko'chib kelishi, uyini tuzatish ishlarida, uy yumushlarida onasiga yordam bergani va televizorda konsert boshlanishi bilan Muhabbatning beixtiyor raqsga tushib ketishi, orqali muallif qizning naqadar san'atsevarligini ko'rsatmoqchi bo'lgan, shekilli, bizningcha.

"Kaptar bolasimi?" hikoyasida esa, ikki o'rtoq Temur va Yo'ldoshning o'zlari bilmagan holda tovuq tuxumini kabutarga bostirib, do'stlari oldida xijolat bo'lgani to'g'risida bo'lib, bu vaziyatdan ularni o'qituvchisi Yodgor Oripovna qutqarib qolgani haqida bo'lib, bu hikoya orqali muallif bolalarni tabiatga, atrof-muhitga, jonivorlarga bo'lgan muhabbatini ko'rsatib bermoqda, bizningcha [Жаҳонгиров F, 1969: 8-19].

Bolalar o'yin folklori qismida olim, dastlab, bola tug'ilishidan mehnat faoliyati boshlagunga qadar o'tgan davr uning yoshi, jismoniy quvvati, qiziqishiga qarab turli xil mashg'ulotlar bo'lgan" man shu "bolalar o'yinlari"dir, deydi. Bizga ma'lumki, bola o'z o'yinlari orqali kelajakda kim bo'lishini va qanday kasb egasi bo'lishini tanlaydi. Olim bolalar o'yinlarining ahamiyati haqida gapirar ekan. Milliy o'yinlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar XI asrda "Devoni lug'ati-turk" asrida berilganligini va unga doir misollarni tahlili bilan keltirib o'tadi. Jumladan "Mono'z-mono'z" bu asosan chorvadorlarning bolalari o'ynaydigan o'yin hisoblanib **mono'z**-hayvonning shoxidir [Махмуд Кошғарий, 3-том: 375]. Olim bolalar o'yinlari haqida yo'zari ekan uning har bir qismi haqida batafsil misollar orqali to'xtalib o'tadi va bir necha qismlarga ajratgan

holda o'rganadi: Jumladan, "O'yinga chaqirish", "O'yin boshi-chek tashlash" va "O'yin oxiri" kabi qismlarga bo'ladi. Dastlab o'yinga chaqirish xususida yozar ekan uning shahar va qishloqlar kesimida turli xilda bo'lishini aytib misollar beradi:

Shahar joylarda:

*-Tokchaga bug'doy sepuvdim,
Undimikin, undimikin?
Mashrabboy uydan chiqmaydi,
Yotdimikano, yotdimikin?*

Qishloq joylarda aytilish ohangi nisbatan keskinroq, murosasizroq ravishda aytiladi:

*-Tomda tovuq qotarmi,
Ayroningdan tortarmi?
O'yin yoqmas bolalar,
Nomozshomdan qotarmi?*

Hatto o'yinga chaqirishda bolalarning jinsiga mos tarzda chaqirishlar ham borligini aytib o'tadi. Masalan qiz bolaga nisbatan muloyimroq, yumshoqroq tarzda murojaat qilish, o'g'il bolalarga esa, keskin ohangda murojaat kabi.

O'yin boshi –*chek tashlash*-bolalar bu mashg'ulotni biror bolani navbatini sinashda yoki o'yin boshi qilishda qo'llaydi va bu mashg'ulot "Devoni lug'ati-turk" asarida "čeklāšdi" iborasi orqali tilga olinganligini aytib o'tadi. O'yin boshi-chek tashlashning uch xilda uchrashini aytib o'tadi, bular: og'zaki yo'lda, biror narsani tashlash yo'li bilan, sanoq termalar orqali.

O'yin oxiri –qismida esa bolalar eyinnin tugatgach aytiladigan aytimlar berilgan. Jumladan, Andijonda yozib olingan qo'shiq:

<i>Do'st otalar qildi mani,</i>	<i>To'qiganlar o'lmasin.</i>
<i>Do'st balolar qildi mani</i>	<i>Tor kastyum tavo bo'ldi,</i>
<i>O'ynamoqqa, kulmoqqa</i>	<i>Marjonim shado bo'ldi,</i>
<i>Xumor qildi mani</i>	<i>Hush bo'libsiz o'rtoqlar</i>
<i>Oq shoyi ko'ylagimni</i>	<i>O'ynimiz tamom bo'ldi.</i>

Bazida o'yin biror bir sabab bilan(yoki o'yin boshining noshudligi yoki biron boshqa sabab bilan) ko'ngilli o'tmay qolsa, aytiladigan terma:

*Biz edik, biz edik,
O'ttiz ikki qiz edik.
Shu o'yinni bilolmay
To'rt tomonga to'zidik*

Olim o'yin tugashiida aytiladigan qo'shiqlarni hududlardagi variantlarini ham keltirib o'tadi:

<i>Uy-uyiga, tepa to'yiga!</i>	
<i>Uy-uyiga, twppa-to'g'ri to'yiga!</i>	<i>(Toshkent)</i>
<i>Uy-uylikka tepa to'llikka!</i>	<i>(Qarshi)</i>
<i>Uy-uyiga tepa to'yiga,</i>	
<i>Bitta xo'rozim bor, u ham uyiga.</i>	<i>(Samarqand).</i>

Bola termalari. Bunday qo'shiq turlari, asosan voqeband ya'ni biror bir voqeaga asosan tuzilgan bo'ladi va olim bunga ham bir qanchasini berib tahlillar yordamida keltirib o'tadi. Bola hayotida qo'shiq, o'yin, mashg'ulotlardan tanaffus bo'lmaydi. Negaki, bolalarning jo'shqinligi va izlovchanligi, sabrsizligi va harakatchanligi to'lib toshgan bunday qo'shiqlar ularning sermahsul fantaziyasi bilan ham yo'g'rilgan.

<i>Qaychi-qaychi,</i>	<i>- Qaqqa borasan?</i>
<i>Po'lat qaychi,</i>	<i>- Toqqa boraman.</i>
<i>Po'lat qaychi.</i>	<i>- Tog'da maqasan?</i>
<i>Qo'limni kesdi,</i>	<i>- Pista chaqaman,</i>
<i>Mullavachchalar</i>	<i>Pistani ma'zi</i>
<i>Yo'limni to'sdi</i>	<i>Qo'qonni qandi.</i>

Toshkent va Farg'ona vodiysida "Chuchvara qaynatur" qo'shig'i keng tarqalganligini, odatda u atigi to'rt yo'ldan iborat ekanligini aytib misol kelturadi.

*Chuchvara qaynaydiyo
Enam menga bermaydiyo,
Bermasa bermasina
Oq uyimga kirmasuna.*

Qo'shiqning Qo'qon variant:

*Chuchvara qaynaydiyo,
Onam menga bermaydura.
Bermasa bermasuna,
Boshimga urmasuna.*

Bundan tashqari olim "Bazzoz qo'shig'i" yoki "Pashsha g'uv-g'uv etadi" kabi qo'shiqlar ham bolalarning sevimli qo'shiqlaridan hisoblanganini ta'kidlaydi.

Bola fantaziyasini hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan gaplardan ko'ra, boshdan oyoq mubolag'a, uydirma narsalar, hikoyalar ko'proq tortadi. Olim bolalar qo'shiqlarini xulosalar ekan qo'shiqlarning ham bola pedagogikasi va psixologiyasini o'rganishda ahamiyati katta ekanligini aytib o'tadi.

O'yinda folklor elementlari.

Olim o'yin folklorining bolalar hayotidagi vazifasi, o'rni haqida aytib o'tar ekan, rus pedagoglari bola o'yinlarini uch davrga ajratganini ta'kidlab o'tadi. Jumladan,

1. Xona ichidagi o'yinlar davri ya'ni o'yinchoqlar bilan;
2. 11-12 yoshgacha bo'lib, serharakat o'yinlar davri;
3. Bu davrda bola bevosita mehnat faoliyati va ongli tarzda o'ynaladigan o'yinlardir.

Olim fikrlarini davom ettirib, "Biz ixtiyorimizda mavjud o'zbek bolalar o'yin folklori materiallari asosida o'yinlardagi folklore elementlarning o'rnini va shartli ravishda bo'lsa ham vazifasini belgilab chiqishga harakat qildik va bir qancha bolalar o'yinlariga misollar keltirib, qay tartibda o'ynalishi va bola kamolotidagi vazifalari xususida to'xtalib o'tadi: Masalan, Toshkentda "Darra soldi", "Kesak qo'ydi", Xorazmda "Yoshlom-yoshlom" kabi. Bularning hammasida bolalar davra olib, qo'llarini orqaga qilib o'tiradilar. Navbati kelgan bola qo'lidagi eshilgan"darrani" davradagilarning birining orqasiga bildirmasdan qo'yib ketadi va "Ro'molchamni tashlab ketdim bir o'rtog'im olsin-da" deyishi bilan hamma orqasiga qaraydi, ro'molchani sezib qolsa, darhol olib, qo'ygan bolani "joyingni top" deb quvib ketadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ati-turk" asarida ham shunga o'xshash o'yin borligini nomi esa, "o'tish-o'tish" deb atalganligi hozirgi kunda esa bu o'yin "musht-musht" deyilishi haqida ma'lumot berib o'tadi. Shu kabi juda ko'plab bolalar o'yinlari, jumladan "Ko'z boylag'ich", "Qora ko'rdim", "Eshak yag'ir"(eshak mindi), "Juftmi toq"(topishmoqli o'yin), bolaning chaqqonligi va jismoniy harakatlariga qurilgan o'yinlardan: "Berkinmachoq", "Churrum kesdi", "Ostona pechhi", "Ko'rpa kuydi" va h.k o'yinlar va ularning variantlarini aytib o'tish bilan birgalikda olim misollar va juda mukammal ravishda tahlillar ham berib boradi va bola kamolotida juda muhim o'ringa ega ekanligini yana bir bor eslatib o'tadi.

Olim, asosan kattalar o'ynaydigan **chovgon** o'yinini bolalar tarafidan o'ynaladigan variantlarini va hududlar bo'yicha nomlarini, o'yin tartibini aytib o'tadi. Olim **salovat** o'yini ham unga kiritilgan har bir elementi xuddi **chovgon** o'yinining bir variant ekanligini aytib o'tadi. Bundan tashqari, chorvador rayonlarda o'ynaladigan "**kal echki**", "**chi, chi, gov, gov**" o'yini ham yuqoridagi chovgon o'yini kabidir, deydi olim. Shu bilan birga qizlar tomonida o'ynaladigan "*Oq sholi-ko'k sholi*" o'yini haqida aytib o'tar ekan bu o'yin objuvozda sholi oqlashni, objuvoz harakatlarini eslatishi haqida ma'lumot berib o'tadi.

Koptok o'yinlarining xillari haqida aytar ekan, "*Qalpoq tepidi*" o'yini boshqalaridan bolalar jo'rligida aytilishi bilan boshqalaridan ajralib turishini aytadi. Arqon bilan o'ynaladigan o'yinlar, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida juda ommaviligi va bu o'yin qadimdan mavjud bo'lib "*Arg'imchoq*"(*yalku*) deyiladi. Hozirgi kunda bu o'yin "rezinka" deb ataladi. Jismoniy mashqlar,

jumladan suzish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar Xorazmda yozib olingan “chumurdi qochdi”, “olma menda” kabi.

Bolalar o‘yinlari orasida tinch, sokin holda o‘tirib o‘ynaladigan o‘yinlar ham mavjud bo‘lib bular: “*Ninachi*”, “*Xolam mehmonga keldi*”, “*Bog‘landi*”, “*Sotuvchi va xaridor*” kabi. Meva pishig‘ida o‘tkaziladigan kattalarning “*Meva sayli*”, “*Qovun sayli*” kabi tadbirlariga bolalar ham taqlid ohangida “*Shaftoli shaker*” o‘yinini o‘tkazishadi. Olim bolalar o‘yinlari orasida keng tarqalgan yana bir qanchasini sanab o‘tadi: “*Topiq saqlash*”, “*Yashil*”, “*O‘ttiz uch*” kabi o‘yinlar uzoq vaqt davomida o‘ynaladigan o‘yinlar qatoriga kirishi va xotirani mustahkamlashda muhim o‘rin egallashini aytib o‘tadi va bularda ham folklore elementlarini juda bisyorligini ta’kidlaydi

Xulosa qilib aytganda, bolalar folklori juda qiziqarli va qaysidir ma’noda murakkab bir folklordir. Bu folklorni o‘rganish uchun inson chin ma’noda bolalar ruhshunosi ham bo‘lishi joiz. chunki bolalar ushbu o‘yinlar orqali dunyoni o‘rganadi, insonlarni atrofda barcha jonli va jonsiz narsalarni o‘rganadi, o‘ziga kerakli bo‘lgan xulosalarni chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жаҳонгиров Ф. Болалар эртаклари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. Б. 38.
2. Жаҳонгиров Ф. Делфин устидаги бола. – Тошкент: Ёш гвардия, 1972. – б. 23.
3. Жаҳонгиров Ф. Тоғ кабутари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. б. 86.
4. Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фолклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – б. 118
5. Тўлабоев О., Жўраев М., Каримов Б., Абдиев Х., Саидов И. Ўзбек фолклоршунослиги. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2017. – Б. 151.

